



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



SHIORLARNI O‘RGANISHNING XARAKTERLI XUSUSIYATLARI

B.U.G‘iyosov

TDShU doktoranti:

+998998901840, giyasovbobur@gmail.com

ANNOTATSIYA: Xitoyda shiorlarni deyarli hamma yerda ko‘rish mumkin: aholi yashash joylari, sinf auditoriyalari, hukumat idoralari, markaziy ko‘cha va dam olish hiyobonlarida. Xitoy shiorlarining soddaligi nimada? Xitoy shiorlarining soddaligi shundaki, bu undagi ieroglislar borligida, ya’ni ieroglislarini o‘qishni yuzaki biladigan xitoylik ham, qizil plakatlardagi, toshlarga o‘yib yozilgan shiorlarni o‘qiy ololsin. Shuning uchun ham dunyonи qayerda bo‘lmisin, shiorlar jamiyatning umumiy maqsadlarini ifoda etuvchi g‘oya sifatida ajralmas lingvomadaniy hodisa bo‘lib kelmoqda. Shiorlar qadimda qog‘oz, tosh yoki biron bir materiallarga yozilgan, shiorlarni yozishda turli xil jamiyatlar turli xil vositalardan foydalanishgan: siyoh, bo‘yoq va boshqalar. Xitoy shiorlardan aholini umumiy g‘oya ostida birlashtirish uchun juda ko‘p foydalanganligini tarixiy hujjatlarda aks etgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Xitoy shiorlari, lozung, slogan, xitoy ta’lim shiorlarini xarakterli xususiyatlari.

АННОТАЦИЯ: В Китае лозунги можно увидеть практически повсюду: в жилых кварталах, классах, правительственные учреждениях, центральных улицах и аллеях для отдыха. В чем простота китайских лозунгов? Простота китайских лозунгов состоит в том, что они имеют иероглифы, то есть даже китаец, умеющий читать иероглифы, может прочитать лозунги на красных плакатах и высеченные на камнях. Вот почему везде, где мир разделен, лозунги являются незаменимым языковым и культурным явлением как идея, выражающая общие цели общества. Лозунги писались в древности на бумаге, камне или других материалах, причем разные общества использовали для написания лозунгов разные средства: чернила, краску и т. д. Исторические документы показывают, что Китай много использовал лозунги, чтобы объединить людей под общей идеей.

Опорные слова и выражение: китайские лозунги, лозунги, лозунги, характеристика китайских образовательных лозунгов.

ABSTRACT: In China, slogans can be seen almost everywhere: in residential areas, classrooms, government offices, on central streets and recreational parks. What is the simplicity of Chinese slogans? The simplicity of Chinese slogans lies in the fact that they contain hieroglyphs, that is, even a Chinese person who knows how to read hieroglyphs superficially can read slogans on red posters, carved on stones. That is why, wherever you





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



are in the world, slogans have become an integral linguistic and cultural phenomenon as an idea expressing the general goals of society. Slogans were written on paper, stone or any other materials in ancient times, and different societies used different means to write slogans: ink, paint, etc. Historical documents show that China used slogans a lot to unite the population under a common idea.

Keywords and expression: Chinese slogans, slogans, slogans, characteristic features of Chinese educational slogans.

KIRISH.

Hozirgi vaqtida Xitoyda shiorlarni o‘rganish faol o‘sish bosqichida ekanligini aytish mumkin. Yangi asrning so‘ngi yillarda shiorlarni o‘rganish sezilarli darajada faollahashdi. Filologlar va sotsiologlar tegishli muammolarni o‘rganishga ko‘proq e’tibor berishni boshladilar. Shuni aytish joizki, asarlar soni ham sezilarli darajada oshdi, ular orasida shiorlarni turli lisoniy jihatlariga bag‘ishlangan ko‘plab qiziqarli izlanishlar ko‘paymoqda. Xitoyning ko‘p asrlik tarixi juda ko‘p shiorlarning yaratilishida, shuningdek, ularning mazmuni xilma-xilligida juda katta rol o‘ynadi.

MAQSAD VA VAZIFA.

Tadqiqotning maqsadi shiorlarni o‘rganishning xarakterli xususiyatlarini aniqlash. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Shiorlar muammolarini o‘rganishning xarakterli xususiyatlari aniqlash;
2. Shiorning tadqiqot modellari turlari aniqlash;
3. Olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra ilmiy xulosa berish.

USULLAR.

To‘plangan materiallarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tavsifiy va semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

ERISHILGAN NATIJALAR.

Shiorlar muammolarini o‘rganishning xarakterli xususiyatlari turli xil usuli:

1. Shiorlarni o‘rganish va tadqiq qilish aniq materialni tahlil qilish orqali taqdim etiladi. Jurnallar sahifalarida taqdim etilgan ishlar assortimenti nafaqat mavzu bo‘yicha xilma-xildir: muayyan materialning empirik tahlili ham turli xil. Shu jihatdan shiorlarni o‘rganishda aniqlik juda katta ahamiyatga egadir. Misol uchun 2005²⁰ yil va 2008²¹ yillardagi ilmiy ishlarda shiorlarni davr jihatidan, mavzu jihatidan aniqlik va tahlil jihatidan aniq lingvistik usul tanlanganligini kuzatish mumkin.

2. Shiorlarning lisoniy va uslubiy xususiyatlari hozirgacha ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Lozung va sloganlar til yordamida yaratiladi, ularning matnlari esa til

²⁰ Чжан Цзя. Исследование и анализ эффективности наружных лозунгов некоммерческого характера в городе Шанхае: социолингвистическое рассмотрение: Дис. ... маг. филол. наук. - Шанхай, 2005. Chjan Jia. Shanxay shahrida notijorat xarakterdagи tashqi shiorlarning samaradorligini tadqiq qilish va tahlil qilish: ijtimoiy lingvistik nuqtai nazar: Dis. ... mag. filol. Fanlar. - Shanxay, 2005 yil.

²¹ Чжу Вэньциан. Дискуссия о китайских лозунгах: Современная филология // Лингвистическое исследование. 2008. №10. Chju Venqing. Xitoy shiorlari haqida munozara: Zamonaviy filologiya // Tilshunoslik. 2008 yil. №10.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mahsulidir. Shiorlar lingvistik va stilistik tadqiqotlar obyekti hisoblanadi, bu esa shu yo‘nalishda yaratilgan maqolalarning ilmiy jihatdan o‘rganilganlik darajasini ko‘rsatadi. Quyidagi maqolani misol qilish mumkin: “Slogan va lozung shiorlari tili haqida” (2004)²².

3. Shiorlarning ijtimoiy-tarixiy tomoniga qiziqishning hozirda yaqqol kuchayishi kuzatilib, lozung va sloganlarning o‘ziga xos ijtimoiy nutq sifatida muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ularni ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy yondashuv bilan o‘rgansa bo‘ladi. Masalan: “Xitoy va ingлиз shiorlaridagi madaniy farqlar to‘g‘risida” (2009)²³.

4. Ushbu obyektni o‘rganishda intertekstual yondashuv paydo bo‘ldi. Shiorlardagi intertekstuallik masalalariga katta e’tibor beriladi. Quyidagi maqolani misol qilib keltirish mumkin: “Ingliz bosma reklamasida intertekstuallikni tahlil qilish” (2007)²⁴.

5. Shiorlarni tarjima qilish muammosi tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina asarlarda shiorlarni, ayniqsa tarjima strategiyalarini tarjima qilish masalalari ham ko‘rib chiqiladi, shuningdek, xitoy tilidan boshqa tillarga (hozircha tilshunoslar asosan ingliz tili bilan cheklangan) tarjima qilish muammolari muhokama qilinadi. Quyidagi maqolani e’tirof etilayotgan fikrni tasdiqi sifatida ko‘rsa bo‘ladi. “Xitoy shiorlari muammosi va ularning tarjimasi” (2002)²⁵.

6. Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli shiorlar tarjimasini o‘rganishda asosiy nuqtalardan biri tarjima unsurlardir. Quyidagi maqolani misol qilsa bo‘ladi. “Reklama sloganlari tarjimasida madaniy obrazlarning transformatsiyasi” (2003)²⁶.

7. Xitoy shiorlari milliyligi va o‘ziga xosligi bilan boshqa davlat shiorlaridan alohida ajralib turadi. Quyidagi maqolani misol qilib keltirish mumkin: “Ijtimoiy shiorlarda an‘anaviy madaniyatning ko‘rinishi” (2008)²⁷.

Shiorning tadqiqot modellari turli xildir, shuningdek mualliflarning mos ravishda bilim, metodologiya va ilmiy qiziqishlari bir-biridan farq qiladi, tavsifning quyidagi usullari bilan tadqiqot modellari usullarini ko‘rsatish mumkin.

Tanqidiy usul. Har bir shior ham jamiyatning foydasiga ishlaydigan va manfaatlarini yuqori qo‘yuvchi belgi va maqsadlar bilan targ‘ib qilinuvchi emas. Uning milliy qadriyatlariga zid va hokimyat maanfatllarini ustun qo‘yuvchi shiorlar tanqid qilinadi. Asosan jamiyatdagi real voqealik yashirib, chiroyli harflar orqasiga jamiyatda bo‘layotgan

²² Лю Фэнлин. О языке лозунгов и слоганов // Исследование стилистики. 2004. № 4. Liu Fenglin. Shiorlar va shiorlar tili haqida // Stilistikani o‘rganish. 2004 yil. № 4.

²³ Чжэн Инь. О культурных различиях в китайских и английских лозунгах // Бизнес для всех (Общественный бизнес). 2009. № 9. Zheng Yin. Xitoy va ingliz shiorlaridagi madaniy farqlar to‘g‘risida // Hamma uchun biznes (Ommaviy biznes). 2009 yil. № 9.

²⁴ Цзян Сюань. Интертекстуальный аспект исследования перевода рекламных слоганов: Дис. ... маг. филол. наук. - Гуанчжоу, 2007. Jiang Xuan. Reklama shiorlari tarjimasini o‘rganishning intertekstual jihat: Dis. ... mag. filol. Fanlar. - Guanchjou, 2007 yil.

²⁵ Хуан Хуамин. Проблема китайских лозунгов и их перевода: Дис. ... маг. фил. н. - Гуанси, 2002. Xuan Xuaming. Xitoy shiorlari muammosi va ularning tarjimasi: Dis. ... mag. Fil. n. - Guangxi, 2002 yil.

²⁶ Сан Иоу, Ли Дин. Преобразование культурных образов в переводе рекламы // Китайский научно-технический перевод. 2003. № 3. // Sun Yov, Li Ding. Reklama tarjimasida madaniy tasvirlarni o‘zgartirish // X. ilmiy va texnik tarj., 2003y.

²⁷ Лю Ган. Продолжение традиционной культуры в социальных рекламных плакатах // Информации науки и техники. 2008. № 31. // Liu Gang. Ijtimoiy reklama plakatlarida an‘anaviy madaniyatning davomi Informatsii nauki i techniki. 2008 y.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



real voqealik ifoda etilmasa, shiorlarni shu usul bilan reallik masalasi ko‘tarilib, tanqid ostiga olinadi. Yu Genyuan (1992)²⁸ shunday usulni qo‘llaganligini kuzatiladi

Sanoq usuli. Agar shiorlar yetarlicha jurnalistlar tomonidan tahlilga tortilmay journaal, internet, televideniya va gazetalarda chop etilsa, ular sanoq usuli bilan qora ro‘yxatga tushadilar. Mana shunday maqolalarni yozganlar, asosan ilmiy bo‘lmagan jurnallarda o‘z maqolalarni bir shior ostiga yashrib chop etishadi, ularning asosiy maqsadi targ‘ibotni kuchaytirishdir, shuning uchun bunday ishlar, qoida tariqasida, unchalik ilmiy emas va bundan tashqari, ular asosan shior deb ham qaralmaydi, asosan bunday shiorlar maqolaning sarlovhasi bo‘lish bilan cheklanadi, shuning uchun bunday shiorlar mualliflari ham ko‘rsatilmaydi va shior ham deyilmaydi. Quyidagi maqolani misol qilib keltirish mumkin: “O‘rmon xo‘jaligi sohasidagi shiorlar” (1994)²⁹.

Tilning me’ory xususiyatiga yo‘naltirilgan usul. Bu guruhga shiorlarning shakllanishi va qo‘llanish qonun-qoidalari kiradi. Bunda shiorlar lisoniy hodisa sifatida qaraladi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, har qanday til hodisasi kabi shiorlar ham tilning umumiy me‘yorlariga mos kelishi kerak. Ularning asarlarida ko‘plab misollar tahlili asosida til me‘yorlarining buzilishi qanday aks etganligi Jan Yong (1983)³⁰ va Liu Fen (1999)³¹ Ishida ko‘rish mumkin.

Estetik usul. Bu guruh shiorlarni estetika obyekti sifatida qabul qilib, Ushbu guruhning maqolalarida shiorlarning ta’sirchanligi va stilistik va lingvistik nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Quyidagi maqolani misol qilib keltirish mumkin: Chiu Li (1998)³² yozgan ilmishda aynan shu jihatlar o‘rganilinganligini ko‘rsa bo‘ladi.

Tarixiy voqealarni takrorlash usul. Bu guruh faoliyatining o‘ziga xos jihat shundaki, tadqiqotchilar e’tibori ijtimoiy hayotning muayyan shakl va hodisalarini aks ettiruvchi shiorlar mazmuniga qaratiladi, bu shiorlarni tahlil qilish jarayonida tarixiy fakt va manzaralar xarakterlanadi. Bu guruh asarlarida, asosan, shiorlar va jamiyat hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlik muhokama qilinadi, shiorlar mamlakat tarixini o‘rganishga yordam berishi ta‘kidlanadi. Quyidagi maqolani misol qilib keltirish mumkin: Chen Jihong (1999)³³ Liangshandagi Qizil Armiya qoldirgan shiorlar haqida tarixiy monografiya yozgan.

XULOSA

²⁸ Ю Генъюань. Анализ 400 высказываний лозунга рекламы. - Китайские общественные науки, 1992. Yu Genyuan. Analysis of 400 advertising slogan statements. - Chinese Social Sciences, 1992. Yu Genyuan. 400 ta reklama shiorlari tahlili. - Xitoy ijtimoiy fanlari, 1992 y.

²⁹ Лю Сяньчон. Собирание лозунгов в сфере (области) лесного хозяйства // Лесное хозяйство Шаньси. 1994. № 4. Liu Siancheng. O‘rmon xo‘jaligi sohasida (hududida) shiorlarni yig‘ish // Shanxi o‘rmon xo‘jaligi. 1994 yil. № 4.

³⁰ Чжан Чион. Немного о языке лозунгов // Изучение китайского языка. 1983. № 4. Chjan Chiyun. Shiorlar tili haqida bir oz // Xitoy tilini o‘rganish. 1983 yil. № 4.

³¹ О языке лозунгов и слоганов // Изучение стилистики. 1999. № 1. Shiorlar va shiorlar tili haqida // Stilistikani o‘rganish. 1999. № 1. Qiu Liqin. Shiorlar tilining san‘ati haqida bir oz // Lanyungan o‘quv institutining xabarnomasi. 1998 yil № 1.

³² Цю Лицинъ. Немного об искусстве языка лозунгов // Вестник Ланьюнганского образовательно инст. 1998 № 1. Li Chuang. Qizil Armiyaning toshga o‘ylgan shiorlari // Xitoy xalq armiyasi. 1994 yil. № 6.

³³ Чэнь Цзихун. Лозунги, оставленные Красной армией во время пребывания в Ляншань // Культурные ценности Сычуань. 1999. № 4. Chen Jihong. Liangshan Qizil Armiya qoldirgan shiorlar // Sichuan ning madaniy qadriyatları. 1999 yil. № 4.





1. Shiorlar muammolarini o‘rganishning xarakterli xususiyatlari 7 xil usuli aniqlandi;
2. Shiorning tadqiqot modellari turlari aniqlandi, ular 5 xil modelni o‘z ichiga olishi isbotlandi;
3. Shiorlarni o‘rganishning xarakterli xususiyatlari o‘rganilindi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, A. A. (2022). The Problem of The Grammatical Category of The Chinese Language. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 226-229.
2. Каримов, А. А. (2021). СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 76-81.
3. Каримов А.А. Выявление исконных и приобретенных значений иероглифов 念, 讀, 看 (сравнительный анализ японского и китайского языков). // Материалы международной конференции по японоведению. Цукуба .Ташкент., - 2020.
4. Белоусова Н.П. Основные характеристики слогана как субъекта современного российского рекламного дискурса: автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.01. Самара, 2006. – С. 16.
5. Чжу Вэньциан. Дискуссия о китайских лозунгах: Современная филология // Лингвистическое исследование. – Ланьчжоу, 2008. – С. 10.
6. Чжэн Инь. О культурных различиях в китайских и английских лозунгах // Бизнес для всех (Общественный бизнес). – Чжэцзян, 2009. № 9, – С. 52.

